

BOLALARNI TA’LIM JARAYONIDA AXLOQIY XURUJLARGA QARSHI MA’NAVIY – AXLOQIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH

Andijon Davlat Pedagogika Instituti
Sirtqi “Maktabgacha ta’lim va maxsus
Pedagogika” fakulteti 3- bosqich
Talabasi Sohobova Oyshaxon Asatullo
Qizi. “Pedagogika va psixologiya” kafedra
O’qituvchisi Obidova Irodaxon Xotamjon qizi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19453734>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarni ta’lim jarayonida axloqiy xurujlarga qarshi ma’naviy – axloqiy immunitetini shakllantirishda atrof muhit, tarbiyachi va ota-ona ta’siri, bolalarni atrof muhitda bo’layotgan turli zararli g’oyalar, zararli odatlar, salbiy ta’sirlardan himoya qila oladigan mustahkam ma’naviy – axloqiy qarashlarni tarbiyalash uchun ta’lim va tarbiya jarayonida yaratiladigan muhit haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: ma’naviy – axloqiy immunitet, axloqiy xurujlar, bolalar tarbiyasi, ta’lim jarayoni, ma’naviy tarbiya, axloqiy qadriyatlar, pedagogik ta’sir, tarbiyaviy muhit, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, oila va maktab hamkorligi, tanqidiy fikrlash va yoshlar ma’naviyati.

Abstract: This article discusses the role of the environment, educators and parents in the formation of children's moral and ethical immunity against moral attacks in the educational process, the environment created in the process of education and upbringing to cultivate strong moral and ethical views that can protect children from various harmful ideas, harmful habits, and negative influences in the environment.

Keywords: moral and ethical immunity, moral attacks, child upbringing, educational process, moral education, moral values, pedagogical influence, cultural environment, national and universal values, family and school cooperation, critical thinking and youth spirituality.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль окружающей среды, педагогов и родителей в формировании у детей морально-этической невосприимчивости к моральным нападениям в процессе обучения, а также среда, создаваемая в процессе воспитания и обучения для формирования прочных морально-этических взглядов, способных защитить детей от различных вредных идей, вредных привычек и негативных влияний окружающей среды.

Ключевые слова: морально-этическая невосприимчивость, моральные нападки, воспитание детей, процесс обучения, нравственное воспитание, моральные ценности, педагогическое влияние, культурная среда, национальные и универсальные ценности, сотрудничество семьи и школы, критическое мышление и духовность молодежи.

KIRISH.

Bugungi globallashuv davrida yoshlar ongiga turli yot g’oyalar, zararli axborotlar va axloqiy tahdidlar kirib kelishi ehtimoli ortib bormoqda. Shu sababli ta’lim tizimida bolalarda ma’naviy – axloqiy immunitetni shakllantirish muhim vazifalardan biri.

Bu borada mamlakatimiz Prezidenti SHAVKAT MIRZIYOYEV yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratib shunday degan: “Yoshlarimizni turli zararli g’oyalar va axloqiy tahdidlardan asrash uchun ularni mustahkam bilim va yuksak ma’naviyat bilan tarbiyalashimiz zarur”.

Bolalarni ta’lim jarayonida axloqiy xurujlarga qarshi ma’naviy - axloqiy immunitetni shakllantirish – bu o’quvchilarda turli zararli g’oyalar, noto’g’ri qarashlar, salbiy axborotlar va axloqiy buzilishlarga qarshi tura oladigan mustahkam ma’naviy qarashlar, qadriyatlar va ijobiy xulq – atvorni tarbiyalash jarayonidir.

Bugungi kunda globallashuv, internet va ommaviy axborot vositalari orqali yoshlar ongiga turli yot g’oyalar, zo’ravonlik, odobsizlik yoki noto’g’ri turmush tarzini targ’ib qiluvchi ta’sirlar kirib kelishi mumkin. Shu sababli ta’lim jarayonida bolalarda ma’naviy – axloqiy immunitetni shakllantirish juda muhim hisoblanadi.

Axloqiy xuruj – bu jamiyat yoki shaxsning axloqiy qadriyatlari, odob- axloq me’yorlari va ma’naviy qarashlariga salbiy ta’sir ko’rsatishga qaratilgan turli g’oyalar, harakatlar yoki axborotlardir. Quyida bir qator axloqiy xurujlar haqida qisqacha so’z boradi.

- _ odobsizlik yoki yomon odatlarni targ’ib qiluvchi axborotlar,
- _ zararli g’oyalar va noto’g’ri qarashlar,
- _ yoshlarni va bolalarni yomon odatlarga undovchi ta’sirlar,
- _ milliy va umuminsoniy qadriyatlarga zid bo’lgan xatti harakatlar.

Aynan maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy xurujlarga qarshi

ma’naviy- axloqiy immunitetni shakllantirishning asosiy jihatlariga to’xtalib o’tamiz:

_ Ma’naviy qadriyatlarni singdirish - bolaga halollik, hurmat, mehr- oqibat, do’stlik kabi oddiy axloqiy qadriyatlarni o’rgatish- kundalik hayotiy vaziyatlar orqali odob - axloq me’yorlarini namoyish etish:

Biz bilamizki maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyatlaridan biri bu - o’yindir. Endi esa o’yin orqali tarbiyani bilib olishimiz darkor.

O’yin va amaliy faoliyat orqali tarbiya - rolli o’yinlar, hikoyalar va masalalar orqali axloqiy qaror qabul qilishni o’rgatish, bu jarayonda tarbiyachi tomonidan ijobiy xulqni rag’batlantirish va yomon odatlarni tushuntirish talab etiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda asosan tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning ota- onalari bilan hamkorligi dolzarb masalalardan biri.

- Pedagogik muhit va ota-ona hamkorligi - maktabgacha ta’lim muassasasida iliq, do’stona va hurmatga asoslangan muhit yaratish, _ ota-ona va tarbiyachilarning birgalikdagi faoliyati bolada mustahkam axloqiy asosni shakllantiradi.

- Salbiy ta’sirlarni aniqlash va bartaraf etish - Bolani zararli odatlar, noto’g’ri g’oyalar va zararli axborotlardan ehtiyot qilish. Masalan zararlitelevizion ko’rsatuvlar yoki internet kontentiga qarshi pedagogic nazorat. Bu nazorat nafaqat tarbiyachida bo’lishi balki asosan uyda ota- onalarda bunday nazoratlar ko’proq bo’lishlikni talab qiladi. Negaki bolaga eng katta ta’sir qiladigan muhit bu oiladagi muhit, tarbiya va nazoratdir.

Bolaga tarbiyachi tomonidan ham ota- ona, buvi- bobolardan ham quyidagi asosiy axloqiy qadriyatlar aytilishi shart deb bilaman:

Halollik - rostgo’y va adolatli bo’lish,

Hurmat- kattalarga hurmat, kichiklarga mehr bilan munosabatda bo’lish,

Mehr- oqibat- boshqalarga yordam berish va rahmdil bo’lish,

Mas’uliyat - o’z vazifasini vijdonan bajarish,

Adolat - tenglik va haqqoniylikni saqlash,

Do’stlik - bit birini qo’llab _ quvvatlash va sodiq bo’lish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ushbu aytib o’tilganlarning ma’nosini beruvchi turli syujetli-rolli o’yinlar, ertak qahramonlari orqali obrazlarga kirib tarbiyachilar tomonidan aytilsa bolalar uchun qiziqarli va esda qolarli bo’ladi. Ular insonning yaxshi va yomonni

farqlashi, to’g’ri yo’l tutishi hamda jamiyatda odob - axloq qoidalariga amal qilishiga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy xurujlarga qarshi ma’naviy – axloqiy immunitetni shakllantirishda oila va maktab (maktabgacha ta’lim muassasasi) hamkorligi juda muhim ahamiyatga ega.

Hamkorlikning asosiy yo’nalishlari:

1. Tarbiyaviy suhbatlar - ota-ona va tarbiyachilar bolaga yaxshi va yomon xatti-harakatlarni tushuntirib berishlari.
2. Birgalikdagi tadbirlar - bayramlar, tarbiyaviy mashg’ulotlar, ochiq darslar orqali bolalarda ijobiy fazilatlarni rivojlantirish.
3. Axborot almashish - ota-ona va tarbiyachi bolaning xulqi, qiziqishi va muammolari haqida muntazam suhbatlashib turishlari.
4. Shaxsiy namuna - kattalarning o’zi odobli, mehribon va halol bo’lishi bolaga kuchli tarbiyaviy ta’sir ko’rsatadi.

Oila va maktabgacha ta’lim muassasasi o’rtasidagi hamkorlik bolalarda ma’naviy- axloqiy immunitetni shakllantirish, ularni turli axloqiy xurujlardan himoya qilish va barkamol shaxs bo’lib voyaga yetishida muhim rol o’ynaydi.

Oilada tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

Agar bola savollar bermasa, tanqidiy fikrlash haqida unutsa bo’ladi. Savollarning sifati haqida keyinroq gaplashamiz. Keling, avvalo bola oxirgi marta bizga qachon savol berganini eslaylik.

Aniqki, maktabgacha yoshdagi bolalar savol berishni yaxshi ko’rishadi. Bu qiziqishdan dalolat beradi, bora-bora u aqlning qiziquvchanligiga, keyinchalik o’z navbatida tanqidiy fikrlashga aylanadi. Ko’p hollarda maktab hayoti boshlanishi bilanoq, savollar berilishi to’xtaydi. Faqat javoblar yangraydi. Ammo bu holatda bolalar faqat yangi bilimlarning iste’molchisiga aylanishadi, ammo ular **bilimlarning yaratuvchisiga** aylanishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy faoliyatini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishishga imkon beradigan innovatsion usullardan biri tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi hisoblanadi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasining 3 ta asosiy bosqichlari mavjud:

I bosqich - "chaqiriq" - mavzuga qiziqish uyg’otadi.

II bosqich - "tushunish" - matn yoki ma'lumot bilan mazmunli ishlash.

III bosqich - "mulohaza" - aks ettirish, shaxsiy munosabatni shakllantirish.

Yoshlarda ma’naviyatni shakllantiradigan muhim omil bu ta’lim-tarbiya tizimidir. Ilmu-ma’rifatga, ta’lim-tarbiyaga inson kamoloti, millat ravnaqining asosiy sharti deb qarash lozim. Shu sababli maktab, yoshlarning ta’lim-tarbiya masalasi davlat nazoratida ekanligi Konstitutsiyamizda belgilab qo’yilgan.

Tarbiyasiga mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq e’tiborni qaratib, jismonan sog’lom va ma’nan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilandi va u davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Ona va bola, Yoshlar, Barkamol avlod, Oila, Obod turmush yili nomlari bilan atalgan Davlat dasturlari va ularning amalga oshirilishi, xalqimizning yorqin kelajagi to’g’risidagi ezgu niyatlari ifodasidir. Dasturlar avvalo jismonan va ma’nan sog’lom, mustaqil fikrlaydigan, ilmiy-zamonaviy dunyoqarashga, chuqur bilimga, vatanparvarlik, millatparvarlik hissiga egalik qiladigan barkamol avlodni shakllantirish vazifalarini belgiladi.

Xulosa qilib aytganda: globallashuv davrida turli zararli g’oyalar va salbiy ta’sirlar yosh avlodning dunyoqarashi va xulq-atvoriga ta’sir ko’rsatishi mumkin. Ta’lim jarayonida

ma’naviy tarbiya oila va ta’lim muassasasi hamkorligi, tarbiyaviy mashg’ulotlar hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish orqali bolalarda mustaxkam ma’naviy - axloqiy immunitetni shakllantirishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. MAVLONOVA R, VOHIDOVA N, RAXMONQULOVA N. _ Pedagogika nazariyasi va tarixi.
2. MUNAVVAROV A. K, (Taxriri ostida)_ pedagogika. Toshkent.
3. PODLASIY I.P PEDAGOGIKA. MASKVA.
4. ABDULLA AVLONIY- Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: o’qituvchi, 1992.
5. FOROBIY ABU NASR _Fozil odamlar shahri. Toshkent: Fan 1993.